

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL  
INTELLEKT SHAKLLANISHIDA TEMPERAMENT  
XUSUSIYATLARINING ROLI**

***Raxmatullayeva Zamira Olimjonovna***

*NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bolalarda emotsional intellekt shakllanishida temperament xususiyatlarining o'rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada temperamentning faollik, emotsionallik, ekstraversiya va neyrotizm kabi parametrlarining emotsional intellekt komponentlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsional intellekt, temperament, ekstraversiya, neyrotizm, emotsionallik, faollik, emotsional rivojlanish.

**Аннотация.** В данной статье теоретически анализируется роль темпераментных особенностей в формировании эмоционального интеллекта у детей. Также в статье освещается взаимосвязь таких параметров темперамента, как активность, эмоциональность, экстраверсия и нейротизм, с компонентами эмоционального интеллекта.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, темперамент, экстраверсия, нейротизм, эмоциональность, активность, эмоциональное развитие.

**Annotation.** This article theoretically analyzes the role of temperamental characteristics in the formation of emotional intelligence in children. The article also highlights the interrelationship of such temperament parameters as activity, emotionality, extraversion, and neuroticism with the components of emotional intelligence.

**Keywords:** emotional intelligence, temperament, extraversion, neuroticism, emotionality, activity, emotional development.

Soʻngi yillarda tadqiqotchilar tomonidan shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, moslashuvchanligi va umumiy hayotiy farovonligining muhim omili sifatida emotsional intellekt tushunchasi eʼtirof etilmoqda. Emotsiyalarni anglash, tushunish, boshqarish va ulardan foydalanish qobiliyati nafaqat kattalar, balki bolalarning ham tengdoshlari bilan munosabatlari, oʻquv faoliyati va kelajakdagi kasbiy yoʻnalishlariga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Aynan shu sababli emotsional intellektning shakllanish mexanizmlarini, xususan, uning biologik va psixologik asoslarini oʻrganish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylangan.

Bugungi kunda emotsional intellekt shakllanishiga asos boʻluvchi koʻplab omillar oʻrganib kelinmoqda. Hususan A.V.Libin, V.M.Rusalov, E.A.Golubeva kabi olimlar oʻz tadqiqotlarida temperament va emotsional intellekt oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni yoritishga eʼtibor qaratganlar.

Temperament va emotsional intellekt oʻrtasidagi munosabat psixologiyada murakkab va koʻp qirrali masala hisoblanadi.. A.V.Libinning fikricha, temperament va intellekt individuallikning bir-biri bilan bogʻliq jihatlaridir. Temperament insonning faolligi va energiyasini, intellekt esa shu energiya va imkoniyatlaridan qanday foydalanishi hamda ularni toʻgʻri yoʻnaltira olish qobiliyatini ifodalaydi [4]. Bu psixik hodisalarning har birida insonning biologik va tugʻma xususiyatlari bilan bogʻliq umumiy jarayonlar mavjud. Shu sababli intellekt va temperamentni yagona psixik xususiyatlar tizimining bir-biri bilan bogʻliq qismlari sifatida baholash mumkin. Bolaning temperament xususiyatlari uning neyrotizm, ekstraversiya va vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlarining shakllanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Demak, temperament xususiyatlari shaxsiy xususiyat sifatidagi emotsional intellekt bilan oʻzaro bogʻliq.

Bundan tashqari temperamentning muhim xususiyatlaridan biri faollik hisoblanadi. Faollik insonning atrof-muhit bilan qanchalik faol munosabatda boʻlishini, uning harakatlari va faoliyatining kuchi, davomiyligi hamda tez-tez takrorlanishini ifodalaydi. E.A.Golubevaning fikricha, faollik nafaqat temperamentning bir qismi, balki umumiy va maxsus qobiliyatlarning ham muhim tarkibiy qismidir [3]. Bolalarda faollikning yuqori boʻlishi ularning atrof-muhit

bilan faol muloqot qilishiga, yangi tajribalarni egallashiga va shu orqali emotsional dunyosining boyishiga yordam beradi. Faol bolalar ko'proq odamlar bilan muloqot qiladilar, turli vaziyatlarda o'z emotsiyalarini namoyon etadilar. Bu esa ularda emotsional axborotni tushunish va qayta ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Temperamentning yana bir muhim xususiyati – emotsionallik [5]. U insonning ma'lum turdagi his-tuyg'ularni boshdan kechirishga bo'lgan barqaror moyilligini, shuningdek, emotsional kechinmalarning mazmuni va qanday namoyon bo'lishini ifodalaydi[6]. Emotsionallik insonning turli hayotiy vaziyatlarda qanday emotsional reaksiya bildirishi va o'zini qanday tutishini ham belgilaydi[12]. Boshqacha aytganda, emotsionallik turli emotsional holatlarning paydo bo'lishi, kechishi va tugash xususiyatlarini o'zida aks ettiradi[5].

Olimlar emotsionallikka bir tomondan temperamentning muhim xususiyati sifatida qarasalar, ikkinchi tomondan insonning motivatsion sohasi bilan bog'liq tavsifi sifatida qaraydilar[3]. U insonning faoliyati va muloqotida emotsional ta'sirga ega bo'lgan vaziyatlarga nisbatan sezgirligini belgilaydi. Shuningdek, emotsionallik tashqi muhitdan keladigan ta'sirlarni saralashga yordam beradi. Ya'ni ayrim ta'sirlarni qabul qilishga, boshqalarini esa cheklashga imkon beradi. Shu sababli emotsionallik insonning faoliyati va emotsiyalarini bir-biri bilan bog'laydi, uning faoliyati va muloqotini tartibga soladi hamda ularning muvaffaqiyatli amalga oshishiga yordam beruvchi muhim omil hisoblanadi.

O.P.Sannikovaning fikricha, emotsionallik nafaqat shaxsning umumiy tuzilishida, balki uning alohida psixologik xususiyatlari, shu jumladan intellektning shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Yu.M.Chernojukning tadqiqotida emotsionallik ko'rsatkichlari bilan ijtimoiy va predmetli intellekt o'rtasida sezilarli bog'liqlik borligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, g'azab, qo'rquv va qayg'u kabi emotsiyalar predmetli va ijtimoiy intellekt bilan salbiy, quvonch esa ijobiy bog'liqlikka ega.

Mazkur tadqiqot natijalari emotsionallikning har bir turiga mansub shaxslarni intellektning tarkibiy qismlari o'ziga xosligi bilan ajratib turishini

ko'rsatadi. Bu esa emotsionallik inson intellektining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir qiluvchi individual-tipologik determinantlardan biri ekanligini tasdiqlaydi [18]. Demak, emotsionallik inson intellektining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir qiluvchi individual-psixologik omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, rivojlangan emotsionallikni emotsional intellektning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qarash mumkin. Chunki yuqori emotsionallik insondan emotsional axborotni yaxshi anglash, tushunish va tahlil qilish qobiliyatini talab etadi.

Emotsionallikning kuchli namoyon bo'lishi ko'proq ekstravert shaxslarga xos. Xitoylik olimlar ekstravert va introvertlarning tafakkur xususiyatlarini o'rganib, rasmlarni tasniflash metodi orqali ekstraversiya obrazli axborotni samaraliroq qayta ishlashga yordam berishi mumkinligini aniqlaganlar[17]. Shuningdek, ekstraversiyaning noverbal intellekt bilan ijobiy bog'liqligi ham bu fikrni tasdiqlaydi[2].

Buni ekstravert shaxslarning ko'proq va xilma-xil ijtimoiy aloqalarga kirishishi, diqqatining ichki dunyodan ko'ra tashqi muhitga yo'nalganligi bilan izohlash mumkin. Keng ijtimoiy tajriba esa atrofdagi insonlarning xatti-harakatlari va holatlariga mos emotsional javob berishni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarda ekstraversiyaning ustun bo'lishi ularning tengdoshlari bilan faol muloqot qilishiga, turli emotsional vaziyatlarda tajriba orttirishiga yordam beradi. Bu esa emotsional intellektning ayrim tarkibiy qismlarini, xususan, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va ularga mos munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga qadar olib borilgan tadqiqotda emotsional intellekt shakllanishiga neyrotizmning ta'siri hali to'liq aniqlangan emas. Neyrotizmning asosiy belgilaridan biri xavotirlanish bo'lib, u insonning aqliy faolligini rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Ammo umumiy intellektdan farqli ravishda, emotsional intellekt neyrotizm bilan salbiy bog'liq. Bu esa neyrotizm va yuqori xavotirlanish emotsional intellektning samarali rivojlanishi va namoyon bo'lishiga qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini

anglatadi.

Bolalarda neyrotizmning yuqori darajasi emotsional barqarorlikning pastligi, kuchli xavotirlanish va o'z his-tuyg'ularini boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli bunday bolalarda emotsional intellektni shakllantirish jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki temperament emotsional intellektning bevosita tarkibiy qismi bo'lmasa-da, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim biologik va psixologik omil hisoblanadi. Faollik, emotsionallik, ekstraversiya va neyrotizm kabi temperament xususiyatlari bolaning emotsional axborotni qanday qabul qilishi, tushunishi, qayta ishlashi va unga javob berishini belgilaydi. Shu orqali ular emotsiyalarni anglash, tushunish, boshqarish va ulardan to'g'ri foydalanish qobiliyatlarining rivojlanishiga asos yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии / И. Н. Андреева. - Новополюцк : ПГУ, 2011
2. Дружинин, В.Н. Психодиагностика общих способностей / В.Н. Дружинин. - М.: Ин-т психологии РАН; М.: Академия, 1996.
3. Голубева, Э.А. Способности. Личность. Индивидуальность: взгляд и раздумья психофизиолога / Э.А. Голубева. - Дубна: Феникс, 2005.
4. Либин, А.В. Дифференциальная психология: На пересечении европейских, российских и американских традиций / А.В. Либин. - М.: Смысл; Per Se, 2000
5. Небылицын, В.Д. Психофизиологические исследования индивидуальных различий / В.Д. Небылицын. - М.: Наука, 1976
6. Овсянникова, В.В. Роль когнитивных факторов в распознавании эмоциональных состояний: автореф. дис. ... канд. психол. наук: 19.00.01 / В.В. Овсянникова. - М.: Ин-т психологии РАН, 2007.

7. Olimjonovna, R. Z. (2024). BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING O'RNII. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 3(34), 78-82.
8. Olimjonovna, R. Z. (2024). O'YIN TERAPIYASI BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 3(35), 190-195.
9. Olimjonovna, Z. R. (2024). O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(35), 75-79.
10. Olimjonovna, R. Z. (2026). BADIY ADABIYOT MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Latin American journal of education*, 6(1), 41-45.
11. Olimjonovna, R. Z. (2026). EMOTSIONAL INTELLEKTDA GENDER FARQLAR MUAMMOSI. *KELAJAK SARI YANGI O'ZBEKISTON: ILM-FAN, TEXNOLOGIYA VA TA'LIM*, 4(1), 138-144.
12. Пашко, Т.А. Психолопні засади формування емоційної культури сучасної молоді / Т.А. Пашко // Проблеми загальної та педагогічної психолопії: зб. наук. праць Інституту психолопії ім. Г.С. Костюка АПН України; за ред. С.Д. Максименка. Т. IX, Ч. 1. – Київ, 2007.
13. Рахматуллаева, З. (2022). Профессиональное становление и педагогическое мастерство учителя. *Ученый XXI века*, (5-1 (86)), 37-38.
14. Рахматуллаева, З. О. (2024). Изучение проблемы эмоционального интеллекта во взглядах деятелей философского учения. *Scientific aspects and trends in the field of scientific research*, 2(21), 440-443.
15. Rahmatullayeva, Z. O. (2021). Development of emotional intelligence in preschool children. *Экономика и социум*, (5-1 (84)), 414-417.
16. Rustamova, G., & Rakhmatullayeva, Z. (2026, January). THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN APPEARANCE AND SELF-ATTITUDE DURING ADOLESCENCE. In *Claritas Conference Platform* (No. 1, pp. 26-29).

17. Zhonggeng, Ch. The relationship between extraversion and overly inclusive thinking in normal Chinese subjects / Ch. Zhonggeng, Yan Wank // Int. J. Ment. Health. – 1991.
18. Черножук, Ю.Г. Індивідуальні відмінності емоційності у співвідношенні з особливостями інтелекту: автореф. дис. ... канд. психол. наук: 19.00.01 / Ю.Г. Черножук; Південноукраїнський держ. пед. ун-т ім. К.Д. Ушинського. – Одеса, 2006.